

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.B.10.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MATHOLIQOV RO‘ZALI BAHTIYOR O‘G‘LI

**BO‘Z MINTAQA BOTQOQ-O‘TLOQI LANDSHAFTLARINING
BIOGEOKIMYOVIIY XUSUSIYATLARI**

03.00.13-Tuproqshunoslik

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona-2026

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on biological
sciences**

Matholiqov Ro‘zali Bahtiyor o‘g‘li

Bo‘z mintaqa botqoq-o‘tloqi landshaftlarining biogeokimyoviy xususiyatlari 3

Матхоликов Рузали Бахтиёр угли

Биогеохимические особенности болотно-луговых ландшафтов сероземной
зоны..... 21

Matholikov Ruzali Bahtiyor ugli

Biogeochemical characteristics of swamp-meadow landscapes in the sierozem
zone.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.B.10.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MATHOLIQOV RO‘ZALI BAHTIYOR O‘G‘LI

**BO‘Z MINTAQA BOTQOQ-O‘TLOQI LANDSHAFTLARINING
BIOGEOKIMYOVIY XUSUSIYATLARI**

03.00.13-Tuproqshunoslik

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona-2026

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/B1428 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Isag'aliyev Murodjon To'ychiboyevich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Abduraxmonov Nodirjon Yulchiyevich
biologiya fanlari doktori, professor

Turdimetov Shaxobiddin Muhiddinovich
biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.B.10.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil « 14 » 04 soat 14³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi 19-uy). Tel.: (+99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz.

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (721 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi 19-uy. Tel (+99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « 01 » 04 kuni tarqatildi.

(2026-yil « 01 » 04 dagi № 5 -raqamli reyestr bayonnomasi)



G'.Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, b.f.d., professor

U.B.Mirzayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.n., dotsent

A.T.Turdaliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda «tuproq resurslari bo'yicha jahon ma'lumotlar bazasi (WRB)da botqoqlashgan gidromorf tuproqlar «gleysols» deb nomlanadi. «Gleysol tuproqlar maydoni dunyo bo'yicha taxminan 720 million gektarni egallaydi. Ular azonal tuproqlar bo'lib, nam iqlimdan tortib arid iqlimgacha deyarli barcha iqlim mintaqalarida uchraydi. Eng katta maydoni subarktik hududlarga: Rossiya, Kanada va Alyaskaga, shuningdek, nam mo'tadil va subtropik pasttekisliklarga (Xitoy va Bangladesh) to'g'ri keladi. Taxminan 200 million gektari tropik mintaqalarda, asosan Amazon daryo havzasi, ekvatorial Afrika va janubi-sharqiy Osiyoda uchraydi. Gidromorf, ya'ni o'tloqi, botqoq-o'tloqi tuproqlar antropogen omil ta'sirida turli darajada degradatsiyaga uchraganligi ta'kidlanadi»¹. Shu sababli bo'z tuproqlar kamarida shakllangan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar unumdorligini, ekomeliorativ holatini sizot suvlari ta'sirida o'zgarishini aniqlash hamda tuproq-o'simlik zanjirida makro-, mikroelementlar miqdori va biogeokimyoviy xususiyatlarini tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda sug'orish ta'sirida sizot suvlarning ko'tarilishi, mineralizatsiyasi, gidromorfizm jarayonida tuproqlar xossalari, unumdorligining o'zgarishini aniqlash, kimyoviy moddalarning geokimyoviy va biogeokimyoviy xususiyatlari bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada sug'oriladigan hudud tuproqlarida elementlarning elementar landshaft bloklarida migratsiyasi, akkumulyatsiyasi, baryerlari va provinsiyalarining shakllanishi, tuproq unumdorligini oshirishda yetishmovchi elementlarni tuproqqa kiritish va ekologik toza qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hamda ularning sifatini baholashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda gidromorf sharoitda shakllangan tuproqlarning ekomeliorativ holatini, geokimyoviy o'zgarishlarini aniqlash, tuproq xossa va xususiyatlarini yaxshilash, unumdorligini oshirish, saqlash va ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda va muhim natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan «Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish» maqsadida «Tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish»² asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan. Shuning uchun ham och tusli bo'z tuproqlar mintaqasi elementar geokimyoviy landshaft bloklarida, xususan tuproq-o'simlik tizimida kimyoviy elementlarning akkumulyatsiya va migratsiyasi jarayonlarini aniqlash, makro- va mikroelementlar miqdori, sifatini tuproq unumdorligini belgilash hamda oshirishda boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 2-fevraldagi 903-sonli «Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-fevraldagi PQ-5006-son «Qishloq xo'jaligiga

¹ https://www.fao.org/4/y1899E/y1899e07.htm?utm_source=chatgpt.com

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

mo'ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi va 2022-yil 10-iyundagi PQ-277-son «Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Landshaft bloklarida, xususan tuproqlarda sodir bo'layotgan kimyoviy, fizik-kimyoviy, ekomeliorativ o'zgarishlarni kimyoviy elementlar miqdori, sifatiga bog'liqligi, elementlarning ruxsat etilgan chegaraviy ulushlari (konsentratsiyalari), tuproq-geokimyoviy, biogeokimyoviy provinsiyalari V.Dobrovolskiy, A.Perelman, N.Kasimov, V.Alekseyenko, Ya.Vodyanitskiy, V.Goldschmidt, A.Kabata-Pendias, Y.Zhao, Q.Wang, X.Lui, J.Smith, L.Brown, R.Harris, Ye.Kruglova, M.Aliyeva, G'.Yuldashev, M.Toshqo'ziyev, N.Abduraxmonov, Z.Jabbarov, M.Isag'aliyev, A.Turdaliyev, D.Xoldarov va boshqa ko'plab xorijlik va respublika olimlari tomonidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan. Lekin bo'z mintaqasi elementar landshaft bloklari och tusli bo'z mintaqaga kamari botqoq-o'tloqi tuproqlari hamda o'simliklarida kimyoviy elementlar sifati, miqdorlari, ekomeliorativ holati, biogeokimyoviy xususiyatlarini sizot suvlari ta'sirida o'zgarishi bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining FSX-7-011 «Farg'ona vodiysi tuproqlarining unumdorligi va uni oshirish muammolari» (2018-2025 yy.) mavzusidagi fundamental hamda «Farg'ona vodiysida tuproq geokimyosining nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish» (2018-2023, 2023-2028 yy.) mavzusidagi xalqaro shartnomalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar mintaqasi botqoq-o'tloqi landshaftlari biogeokimyoviy xususiyatlari, ekomeliorativ holati, makro- va mikroelementlar miqdorlarini sizot suvlari ta'sirida o'zgarishini aniqlash, tuproqlar unumdorligini oshirish va ulardan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

botqoq-o'tloqi tuproqlarning hosil bo'lishi va rivojlanishida tabiiy va antropogen omillarning rolini ilmiy asosda o'rganish;

sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlarning morfogenetik belgilari, agrokimyoviy, kimyoviy xossa-xususiyatlari va ekomeliorativ holatini aniqlash;

«botqoq-o'tloqi tuproq – o'simlik» tizimida kimyoviy elementlar miqdori, sifati, konsentratsiya klarki, geokimyoviy va biogeokimyoviy provinsiyalarini hamda o'zaro korrelyatsiyasini aniqlash;

tabiiy va madaniy o'simliklarning element tarkibi asosida guruhlash, biologik singdirish koeffitsiyenti asosida makro- va mikroelementlarni biogeokimyoviy

intensivligi qatorini baholash;

sugʻoriladigan botqoq-oʻtloqi tuproqlar agrokimyoviy koʻrsatkichlari asosida agrokimyoviy raqamli xaritanomasini tuzish;

antropogen omil taʼsirida botqoq-oʻtloqi tuproqlarning geokimyoviy va biogeokimyoviy xususiyatlarini hisobga olgan holda unumdorligini oshirish hamda mukammal miqyosli agrokimyoviy xaritanoma asosida serdaromad oʻsimliklarni joylashtirish va tuproqlardan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Fargʻona shahri boʻz tuproqlar kamarining Shodiyona nigohi va Umid nigohi massivlarida tarqalgan sugʻoriladigan botqoq-oʻtloqi tuproqlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti sugʻoriladigan botqoq-oʻtloqi tuproqlarining morfogenetik belgilari, agrokimyoviy xossalari, meliorativ holati, makro- va mikroelementlar tarkibi, miqdori, geokimyoviy va biogeokimyoviy migratsiyasi, sizot suvlari chuqurligi va mineralizatsiyasi, oʻsimliklarning element tarkibi, biogeokimyoviy xususiyatlari hamda agrokimyoviy xaritanomalar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar tuproqshunoslikda umumqabul qilingan dala, laboratoriya va kameral sharoitlarda standart uslublar boʻyicha amalga oshirilgan boʻlib, izlanishlarda kesma, morfogenetik, biogeokimyoviy yondashuv, kimyoviy-analitik usullaridan foydalanilgan, jumladan, kimyoviy tahlillar Ye.Arinishkinaning «Руководство по химическому анализу почв», agrokimyoviy xaritanomalar tuzish «Davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq xaritalarini tuzish boʻyicha yoʻriqnoma» boʻyicha ArcGIS10 dasturida hamda tuproq va oʻsimliklarning element tahlili neytron-aktivatsion usulda bajarilgan. Olingan natijalar dispersion matematik-statistik tahlili B.A.Dospexov uslubiga tayangan G.Yuldashev va Sh.Karimovlar tomonidan ishlab chiqilgan kompyuter dasturi yordamida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

eskidan sugʻoriladigan botqoq-oʻtloqi tuproqlarning morfogenetik belgilari, agrokimyoviy, fizik-kimyoviy xossalari, meliorativ holati va biogeokimyoviy xususiyatlari hamda geokimyoviy baryerlari chuqurligi, provinsiyalari sizot suvlari sathiga bogʻliq holda oʻzgarishi aniqlangan;

botqoq-oʻtloqi tuproqlar va oʻsimliklar tarkibida Na, Sm, Lu, U, Yb, Au, Nd, As, Br, Ca, La, Ce, Tb, Th, Cr, Hf, Ba, Sr, Cs, Ni, Sc, Rb, Ta, Fe, Eu, Sb ning miqdorlari, geokimyoviy va biogeokimyoviy xususiyatlari aniqlangan hamda sizot suvi sathi pasayishiga bogʻliq holda keltirilgan elementlar miqdorlari kamayib borish tendensiyasi ilmiy asoslangan;

sugʻoriladigan botqoq-oʻtloqi tuproqlarda gumus, C:N va ozuqa elementlarning tuproq genetik qatlamlarida tarqalishi bimodal xarakterga ega boʻlib, antropogen omil taʼsirida botqoq tuproqlardan botqoq-oʻtloqi tuproqlar tomon evolyutsiyalanganligi dalillangan;

sizot suvlari sathining pasayishi natijasida tuproq, oʻsimliklar tarkibidagi harakatchan ozuqa elementlari (P va K) va biomikroelementlar (Mo, Mn, Zn, Co) miqdorlari ortib borishi hamda botqoq-oʻtloqi tuproq-oʻsimlik oʻrtasida ijobiy korrelyatsiya mavjudligi, korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,75-0,96 oraligʻida tebranishi

isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sugʻoriladigan botqoq-oʻtloqi tuproqlarining fizik, kimyoviy xossalari, geokimyoviy xususiyatlari hamda qishloq xoʻjaligi ekinlarining makro- va mikroelement tarkibi, miqdorlari, ularning migratsiyasi va akkumulyatsiyasi aniqlangan hamda botqoq-oʻtloqi tuproqlar sharoitida oʻsimlik xom-ashyolarini ekologik-biogeokimyoviy tashxislash imkoniyati yaratilgan;

sugʻoriladigan botqoq-oʻtloqi tuproqlarda bugʻlanuvchi, gleyli geokimyoviy baryerlar ajratilgan hamda mos ravishda Sb, Yb, As, Eu, Ni, U, Ba, Zn, Cs, U li ortiqcha kuchsiz tuproq-geokimyoviy provinsiya, oʻsimliklarda Se, Re, Br, K, Mo va Au li kuchsiz, kuchli va juda kuchli biogeokimyoviy provinsiyalar aniqlangan;

sugʻoriladigan botqoq-oʻtloqi tuproqlar uchun 1:5000 miqyosli mukammal raqamli agrokimyoviy xaritanoma tuzilgan boʻlib, organik va mineral oʻgʻitlardan differensial foydalanish hamda serdaromad ekinlarni joylashtirish boʻyicha ilmiy asoslangan tavsiya ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlarni dala, laboratoriya va kameral usullardan foydalangan holda bajarilganligi, tadqiqot natijalari variatsion-statistik tahlildan oʻtkazilganligi, amaliyotga joriy qilinganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama etilganligi, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilganligi natijalarning ishonchliligini koʻrsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati boʻz mintaqa kamari sugʻoriladigan botqoq-oʻtloqi tuproqlarning shakllanishi, sizot suvlari taʼsirida fizik, kimyoviy, biogeokimyoviy xossa-xususiyatlari va meliorativ holatining sizot suvlari taʼsirida oʻzgarishi ilmiy asoslanganligi, tuproq-oʻsimlik tizimida kechayotgan biogeokimyoviy jarayonlar yoʻnalishi koʻrsatib berilganligi, tuproq va oʻsimliklarning ekologik holati hamda ulardan samarali foydalanishning ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlar natijalarining amaliy ahamiyati sugʻoriladigan botqoq-oʻtloqi tuproqlardan samarali foydalanish, unumdorligini oshirish, makro- va mikroelementlarning konsentratsiya klarki miqdorlaridan tuproq-meliorativ, ekologik baholash, oʻsimliklar toʻgʻri joylashtirish va yetishtirish hamda 1:5000 miqyosli agrokimyoviy xaritanomadan organik va mineral oʻgʻitlarni tabaqalashgan holda qoʻllash boʻyicha chora-tadbirlar belgilashda asos boʻlib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boʻz mintaqa kamari botqoq-oʻtloqi tuproqlarining biogeokimyoviy xususiyatlari boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sugʻoriladigan botqoq-oʻtloqi tuproqlar sharoitida tarqalgan oʻsimliklarning ekologiyasi va biogeokimyoviy xususiyatlari asosida “Fargʻona viloyati sugʻoriladigan botqoq-oʻtloqi tuproqlarda kartoshka yetishtirish texnologiyasi boʻyicha tavsiyanoma” ishlab chiqilib, tasdiqlangan va qishloq xoʻjaligi amaliyotiga joriy qilingan (Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligi Qishloq xoʻjaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 11-noyabrdagi 05/05-04-755-son maʼlumotnomasi). Natijada, botqoq-oʻtloqi tuproqlar unumdorligini saqlash va oshirish, kartoshkadan yuqori, sifatli hosil olishda majmuaviy agrotexnik,

agrokimyoviy va meliorativ tadbirlar tizimini amalga oshirishda qo'llanma sifatida xizmat qilgan;

sizot suvlari 0,5 m dan yuqori joylashgan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar fizik, agrokimyoviy va kimyoviy xossalari aniqlangan, shu asosda serdaromad ekinlarni joylashtirishga qaratilgan tavsiyalar Farg'ona shahar "Iqbol", "Karim ota", "Odil-S" fermer xo'jaliklarining jami 70,1 ga yer maydonida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 11-noyabrdagi 05/05-04-755-son ma'lumotnomasi). Natijada, Farg'ona shahri shimoliy qismida shakllangan meliorativ holati qoniqarsiz, yer osti suvlari ko'tarilgan, kuchsiz sho'rlangan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar unumdorligini saqlash, oshirishga xizmat qilgan hamda atirgul, xrizantema va boshqa serdaromad o'simliklar joylashtirilgan;

sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlarning 1:5000 masshtabli mukammal raqamli agrokimyoviy xaritanomasi Farg'ona shahri Umid nigohi massivi "Jo'ydam", "Karim ota", "Iqbol", "Odil-S" fermer xo'jaliklari qarashli jami 148,8 gektar maydonda amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 11-noyabrdagi 05/05-04-755-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'z mintaqaning gidromorf sharoitida shakllangan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar unumdorligini saqlash va oshirish, qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish uchun majmuaviy agrotexnik, agrokimyoviy tadbirlar tizimini amalga oshirishda asos bo'lib xizmat qilgan;

sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlari, uni hosil qiluvchi ona jinslari va qishloq xo'jaligi ekinlarida Na, K, Mn, Sm, Mo, Lu, U, Yb, Au, Nd, As, W, Br, Ca, La, Ce, Tb, Th, Cr, Hf, Ba, Sr, Cs, Ni, Sc, Rb, Zn, Co, Ta, Fe, Eu, Sb va boshqa elementlarning miqdori, biogeokimyoviy xususiyatlari "Iqbol", "Karim ota", "Odil-S" fermer xo'jaligining 70,1 gektar maydonida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 11-noyabrdagi 05/05-04-755-son ma'lumotnomasi). Natijada, hudud tuproqlari va qishloq xo'jaligi ekinlarini tavsiflash, tuproq-ekologik monitoringini olib borish, sabzavot ekinlarini to'g'ri joylashtirish, ekologik toza o'simlik xomashyolari yetishtirishda asos sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 6 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Jumladan, 1 ta tavsiyanoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan, 1 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotlarning maqsadi, vazifalari hamda obyeksi va predmeti, usullari tavsiflangan. O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi keltirilgan, oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarni nazariy va amaliy mohiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Gidromorf tuproq tadqiqoti va geokimyoviy xossaxususiyatlari tahlili tarixi**» deb nomlangan birinchi bobi ikki banddan iborat bo‘lib, unda respublika va xorijiy olimlarning sohada qilingan ishlari to‘g‘risida adabiyotlar chuqur tahlil qilingan. Tuproqlar biogeokimyosining o‘rganilish tarixiga oid adabiyotlar hamda gidromorf tuproqlar geokimyoviy xossaxususiyatlari tahlili tarixi ochib berilgan. Qayd qilingan adabiyotlar ma‘lumotlarining yakuni sifatida Farg‘ona vodiysi bo‘z mintaqa tuproq-iqlim sharoitida shakllangan sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlar, sizot suvlari va o‘simliklarining kimyoviy elementlar tarkibi va ularning fon miqdorlari, botqoq-o‘tloqi tuproq-o‘simlik tizimida kimyoviy elementlar miqdori, sifati, konsentratsiya klarki, biologik singdirish koeffitsiyentlari, biogeokimyoviy intensivligi, geokimyoviy va biogeokimyoviy provinsiyalarini hanuzgacha tadqiq etilmaganligi, tabiiy va antropogen omil ta‘sirida botqoq-o‘tloqi tuproqlar genezisida, fizik, kimyoviy, geokimyoviy va biogeokimyoviy xususiyatlarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda unumdorligini oshirish hamda tuproqlardan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish yuzasidan tadqiqotlar o‘tkazish zarurligi bo‘yicha xulosalar qilingan.

Dissertatsiyaning «**Botqoq-o‘tloqi tuproqlar tabiiy-geografik tavsifi. Tadqiqot obyeksi va usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobi uchta paragrafdan iborat bo‘lib, botqoq-o‘tloqi tuproqlar tabiiy-geografik tavsifi, iqlim tuproq hosil qiluvchi omil sifatida, tadqiqot obyeksi va usullari to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan.

Botqoq-o‘tloqi tuproqlar Farg‘ona vodiysining Janubiy Farg‘ona agroiklimiy rayonlar guruhiga kirib, vodiyning tuproq-iqlimiy sharoitlari, dehqonchilik, ya‘ni sug‘orish ta‘sirida xossa va xususiyatlari o‘zgargan, geologik-litologik va relyef tuzilishlaridan kelib chiqib, lyosslar, lyossimon qumolardan va tosh-tuproqli prolyuvial va delyuvial yotqiziqlardan tuzilgan, daryolarning yuqori terrassalari va daryo yoyilmalariga tutashgan, tog‘ osti yassi tekisliklari geomorfologik rayoniga kiradi. Shunga ko‘ra botqoq-o‘tloqi tuproqlar lyosslar, lyossimon qumolardan va toshloq-melkozemli prolyuviylardan tuzilgan, past-balandli, burmalangan adirlar geomorfologik rayoniga kiradi. Botqoq-o‘tloqi tuproqlar esa qatlamli allyuvial-prolyuvial yotqiziqlardan tuzilgan, Marg‘ilonsoyning yuqori o‘ng qismida, Isfayrasoyning o‘rta (II-I va qayir) terrasalari geomorfologik rayonida joylashgan.

Iqlim omilini tuproq hosil qilishidagi roli haqida turli olimlarning fikrlari va hududning ko‘p yillik iqlim ma‘lumotlari kuzatuvlar asosida tavsiflangan. 2013–2023-yillarda Farg‘ona shahrida: havo harorati asta-sekin isib borishi (10 yilda +0,8–+1,0°C atrofida o‘shish kuzatilgan), yog‘inlar beqaror bo‘lib, ayrim yillarda qurg‘oqchilik belgilari sezilgan, yoz fasli issiq va quruq, qish esa yumshoq kechmoqda. Nisbiy

namlikning pasayishi va shamolli kunlarning ko'payishi tuproq namligini kamaytiruvchi omil sifatida ahamiyatga ega.

Shuningdek, hudud uchun hisoblangan bug'lanish darajasi asosida bo'z tuproqlar mintaqasi uchun hisoblasak, so'nggi yillarda 5,8 dan 8,3 marotabaga oshganligi kuzatildi. Natijada bu hududlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini suvga bo'lgan talabini faqat sug'orish orqali qoplash mumkinligini ko'rsatadi. Botqoq-o'tloqi tuproqlar ham sizot suvlari yaqin bo'lishiga qaramasdan bugungi kunda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda sug'orishga tortilgan.

«*Tadqiqot obyekti va usullari*» bo'limida o'rganilgan tadqiqot obyekti sifatida Farg'ona shahrida subtropik mintaqa chala cho'l zonasi tog' etagi qiya tekisliklari hududi, Umid nigohi massivida shag'al-tuproqli aralashgan allyuvial-prolyuvial yotqiziqlar ustida shakllangan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlari (K.3-2023-1-kesma, sizot suvlari sathi 68 sm), eskidan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar (K.3-2023-2-kesma, 134 sm), eskidan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar (K.3-2023-3-kesma, 150 sm), Shodyona nigohi massivi, yangida sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlari (K.3-2023-4-kesma, 51 sm hamda K.3-2023-5-kesma, 49 sm) tanlandi. Biogeokimyoviy tadqiqotlar uchun yovvoyi g'umay (*Sorghum halepense*), madaniy kungaboqar (*Helianthus annuus L.*), kuzgi bug'doyning Asr navi hamda arpaning Novosadski 565 navlari tadqiqotlar obyekti vazifasini o'taydi.

Tadqiqot usullarining asosini tuproqshunoslikda umumqabul qilingan dala, laboratoriya va kameral sharoitlardagi standart usullar va uslubiyatlar tashkil etadi. Tadqiqotning asosiy usuli sifatida V.V.Dokuchayevning kesma va morfologik usuli hamda B.B.Polinov, M.A.Glazovskaya, A.I.Perelman, V.V.Kovalskiylarning tizimli pedogeokimyoviy va biogeokimyoviy yondashuv usullaridan keng foydalanildi. Botqoq-o'tloqi tuproqlarning tarqalishi marshrut asosida dala sharoitida va asosiy kesmalar tanlash, umumiyashtirish va sizot suvlari sathiga tayangan holda koordinatalari, dengiz sathidan nisbiy balandliklari aniqlandi.

Tadqiqotlar olib borilgan hudud sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlarining fizikaviy, kimyoviy, fizik-kimyoviy tahlillari «Руководство по химическому анализу почв» qo'llanmasi asosida bajarildi. Tuproq va o'simliklarning element tarkibi O'zFA Yadro fizikasi ilmiy-tadqiqot instituti neytron-aktivatsion usulda tahlil qilindi. Tuproq namunalari quyidagi analitik tadqiqotlar usullariga tayanildi: gumus miqdori – I.V.Tyurin usulida; mexanik tarkib – N.A.Kachinskiy usuli bilan; yalpi azot, fosfor, kaliy – bitta tuproq namunasi bilan Malseva, Gritsenko usuli; harakatchan P_2O_5 va almashinuvchi K_2O – 1% li ammoniy karbonat yordamida; tuproqdagi va sizot suvlaridagi ionlar tarkibi suvli so'rim uslubi; singdirilgan asoslar Pfeffer usuliga T.P.Kryuger modifikatsiyasida bajarildi.

Dissertatsiyaning «**Botqoq-o'tloqi tuproqlari xossa-xususiyatlari tavsifi**» deb nomlangan uchinchi bobida botqoq-o'tloqi tuproqlar morfogenetik tavsifi, fizik xususiyatlari tavsifi, kimyoviy xossa-xususiyatlari va meliorativ holati tavsifi, sizot suvlari mineralizatsiyasi tavsiflari o'rganilgan va xulosalar berilgan. Och tusli bo'z tuproqlar kamari botqoq-o'tloqi tuproqlarining yuza qatlamlarida namlanish yaqqol ko'zga tashlanadi, sizot suvi sathiga bog'liq holda gleyli qatlamlar turli chuqurlikda uchraydi. K-3-2023-2 kesma bo'z rang, qoramtir tusda, o'rta qumoq, g'ovak, donador mayda kesaksimon strukturali, o'simlik ildizlari ko'p uchraydi, tuproq hayvonlari

mavjud, qo‘shimchalar bor. Gleyli (43-66 sm) qatlamlarda qo‘ng‘ir, jigarrang ko‘rinishda, zichlashganligi, temir birikmalari yaqqol uchraydi. Sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlar sizot suvlari kuchsiz oquvchi, ya‘ni allyuvial tartibotli tipga mansub va oqim yo‘nalishi shimol tomonligi bilan xarakterlanadi.

Botqoq-o‘tloqi tuproqlarda fizik loy (<0,01) miqdori 46,6-62,5% oralig‘ida o‘zgaradi, granulometrik tarkibi og‘ir qumoq va yengil soz (loy) ekanligi bilan xarakterlanadi. Sizot suvining bevosita ta‘sirida bo‘lgan 150 sm dan pastdagi qatlamda fizik loy miqdori 62,5% ni tashkil qildi. Og‘ir mexanik tarkibli tuproqlarda namlik nisbatan ko‘p bo‘lib, bu organik modda gumus miqdoriga bog‘liq ekanligi bilan tavsiflanadi.

Tuproqlarning kimyoviy xossa-xususiyatlari va meliorativ holati tavsifi ga ko‘ra yangidan sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlar genetik qatlamlarida gumus miqdori 5,1-6,1% oralig‘ida tebranadi (1-jadval).

1-jadval.

Sug‘oriladigan gidromorf tuproqlar agrokimyoviy tavsifi

Глубина, см	Гумус, %	Общий, %			C:N	Подвижный, мг/кг	
		N	P	K		P ₂ O ₅	K ₂ O
K.3-2023-1. Sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi							
0-32	6,44	0,70	0,16	1,17	6,2	31,94	120
32-50	5,67	0,68	0,13	1,15	5,6	33,33	93
50-60	6,14	0,67	0,09	1,06	6,2	31,67	196
60-68	4,77	0,55	0,08	1,01	5,8	26,94	84
K.3-2023-2. Eskidan sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi							
0-31	5,26	0,59	0,21	1,29	6,0	47,78	158
31-43	4,36	0,48	0,17	1,18	6,1	37,22	141
43-66	1,95	0,24	0,13	1,17	5,5	33,61	129
66-87	2,57	0,26	0,12	1,11	6,7	36,94	127
87-96	1,75	0,16	0,11	1,23	7,4	36,39	163
96-120	1,71	0,14	0,10	1,19	8,2	32,50	153
120-134	1,35	0,12	0,22	0,98	7,6	27,50	88
K.3-2023-3. Eskidan sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi							
0-24	5,78	0,69	0,26	1,36	5,6	31,94	167
24-41	5,80	0,48	0,23	1,24	4,9	37,22	164
41-62	4,99	0,47	0,21	1,23	8,1	37,78	167
62-78	4,89	0,47	0,16	1,05	7,0	36,11	148
78-107	5,18	0,58	0,09	1,13	6,1	30,55	174
107-150	6,30	0,61	0,08	1,10	7,0	31,67	110
>150	5,04	-	-	-	-	32,78	139
K.4-2024-4. Yangidan sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi							
0-30	6,12	0,61	0,17	1,24	6,8	28,89	62
30-51	5,71	0,58	0,16	1,05	6,6	29,44	60
K.5-2024-5. Yangidan sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi							
0-29	5,94	0,58	0,20	1,12	6,9	28,05	64
29-49	5,08	0,48	0,18	1,10	7,1	38,61	57

Sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarining haydov qatlamida gumus miqdori 5,26-6,44% oralig‘ida tebranadi va ta‘minlanish darajasiga ko‘ra genetik qatlamlarda

o'rtacha va yuqori guruhlar egallaydi. Gumus miqdori haydov osti qatlamida 4,36-5,80% oralig'ida o'zgaradi.

Azotning yalpi miqdori gidromorf tuproqlar genetik qatlamlarida bimodal holatni namoyon qiladi, bu holat yalpi fosfor va kaliyda ham namoyon bo'ladi. Harakatchan fosfor miqdoriga ko'ra botqoq-o'tloqi tuproqlar o'rtacha ta'minlangan va almashinuvchi kaliy miqdori esa juda past va past ta'minlangan guruhlariga mansub. Harakatchan P₂O₅ miqdori tuproqlarning haydalma qatlamida 28,1-47,8 mg/kg, haydov osti qatlamida 29,4-38,6 mg/kg oralig'ida tebranadi, almashinuvchi kaliy esa mos holda 62-167 va 57-196 mg/kg oralig'ida o'zgaradi.

Eskidan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar gumus miqdoriga ko'ra kuchsiz differensiyalanishi, ya'ni quyi qatlam tomon kamayish kuchsiz ekanligi hamda o'zlashtirish jarayonida K.3-2023-2-kesmaning B1 66-87 sm qatlamida gumus ortishi, K.3-2023-3-kesmada esa 78-150 sm lar oralig'ida ortishi va quyida yana kamayishi kuzatildi. Bu holat sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar (K.3-2023-1) genetik qatlamlarida ham takrorlanadi. Gumus miqdoriga ko'ra botqoq-o'tloqi tuproqlar haydov va haydov osti qatlamlari juda yuqori ta'minlangan (>2,0%) guruhga kiradi. Quyi qatlamlarda K.3-2023-2-kesmaning 87-134 sm laridagi midorlari bo'yicha yuqori (1,5-2,0%) ta'minlangan guruhga kiradi. Qolgan tadqiq etilgan tuproqlarda juda yuqori ta'minlangan guruhda qoladi.


Botqoq-o'tloqi tuproqlarida yalpi azot gumus miqdoriga va granulometrik tarkibiga bog'liq holda o'zgaradi. Haydov qatlamlarda 0,58-0,70% oralig'ida bo'lib, quyi qatlam tomon (0,12%) kamayadi va bu ko'rsatgich 4,8-5,8 barobar oralig'ida tebranib, kamayish darajasi o'rtacha 17% ni tashkil qiladi. Bu o'z-o'zidan azotni kamayishi gumusning kamayishiga (20,9%) to'g'ri proporsionalligini ko'rsatadi.

Gumusni azotga to'yinish darajasi, ya'ni C:N nisbati eskidan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar genetik qatlamlarida 5,5-8,2 oralig'ida o'zgaradi. Hidromorf sharoitdagi sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar C:N nisbati bo'yicha to'yinish xarakteriga ko'ra yuqori va o'rtacha darajaga mansub hisoblanadi.

Botqoq-o'tloqi tuproqlarning gumuslilik holatiga ko'ra zaxirasini baholaydigan bo'lsak, botqoq-o'tloqi tuproqlar yuqori (180,3-251,2 t/ga) ta'minlangan guruhlariga mansub hisoblanadi (1-rasm).

Sug'oriladigan tuproqlar sharoitida gumus miqdorining ortishi, granulometrik tarkibni og'irlashishi unda kechadigan ko'plab kimyoviy jarayonlar kabi uning singdirish qobiliyatiga, xususan, singdirish sig'imi va singdirilgan asoslar nisbatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Singdirish sig'imi biz tadqiqot olib borgan tuproqlarda 100 g tuproq uchun singdirilgan asoslar yig'indisi 5,24-13,47 mg-ekv gacha oralig'ida o'zgarib turadi. Singdirilgan asoslar tarkibi jihatidan barcha namunalarda kalsiy (Ca⁺²) va magniy (Mg⁺²) ustunlik qiladi, ularning umumiy ulushi 85-95% atrofida bo'lib, bu tuproqlarning kalsiy-magniyli tipda to'yingan ekanligini ko'rsatadi. Eskidan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlarning quyi sizot suvlari bilan kontaktdagi qatlamlarida singdirilgan natriy ulushi (5,1-5,3) ortib kuchsiz sho'rtoblanishni hosil qiladi.



1-rasm. Botqoq-o'tloqi tuproqlar genetik qatlamlarida gumus zaxirasi, t/ga

Sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlarda suvli so'rim tahlili natijalari ko'ra quruq qoldiq miqdori botqoq-o'tloqi tuproqlar genetik qatlamlarida 0,225-0,790% oralig'ida o'zgaradi, bu o'zgarish ustki va quyi qatlam tomon asta-sekinlik kechadi. Eskidan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar quruq qoldiq miqdori kuchsiz sho'rlanishdan sho'rlanmagan tomon o'zgaradi (K.3-2023-2), quyi qatlamlarga borgan sari quruq qoldiq miqdorining ortish tendensiyasi K.3-2023-3-kesmada saqlanib qoladi va bu kuchsiz sho'rlanish chegarasida saqlanadi.

Olingan suvli so'rim tahlili natijalari asosida galogeokimyoviy jarayonlarda ishtirok etuvchi gipotetik tuzlar ham hisoblandi (2-jadval), unga ko'ra tuproq genetik qatlamlarida sulfatli tuzlar ustunlik qiladi.

Gidrogeokimyoviy tahlil asosida umumiy xulosalar shundan iboratki, tuproq galogenezi sug'orish tarixiga bog'liq holda uchta tipik yo'nalishda rivojlanadi: boshlang'ich (yangi sug'oriladigan) – past sho'rlanish, ammo zaharli tuzlar nisbatan yuqori; faol sho'rlanish (eskidan sug'oriladigan) – umumiy va zaharli tuzlar yuqori, tuzlarning vertikal migratsiyasi faol; qisman yuvilgan (sug'oriladigan) – umumiy tuzlar kamayadi, ammo zaharli tuzlarning ulushi yuqoriligicha qoladi.

Zaharli tuzlarning asosini: NaCl, Na₂SO₄ va MgSO₄ tashkil qilib, ularning umumiy tuzlarga nisbatan ulushi 38-80% gacha etadi.

Sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlarda sizot suvlari mineralizatsiyasi tavsifiga ko'ra eskidan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar sharoitida suvda oson eruvchi tuzlar sifati va miqdorlarida sezilarli o'zgarishlar sizot suvlari sathi va mineralizatsiyasi bilan bog'liq.

Tadqiqot olib borilgan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar va sizot suvlari galogenezida sulfatli tuzlar ustunlik qiladi (3-jadval), sizot suvlarida kalsiy

gidrokarbonat miqdori boshqa tuzlarga nisbatan ustunlik qilishi, galit miqdori kamligi xarakterli xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

2-jadval.

Sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar galogenezining o'zgarishi, %

Qatlam chuqurligi, sm	Ca(HCO ₃) ₂	CaSO ₄	MgSO ₄	Na ₂ SO ₄	NaCl	Tuzlar miqdori			Umumiy tuzlarga nisbatan zaharli tuzlar ulushi, %
						Umumiy	Zaharli	Zaharsiz	
K.3-2023-1. Sug'oriladigan botqoq-o'tloqi									
0-32	0,081	0,357	0,163	0,089	0,035	0,725	0,287	0,438	39,6
32-50	0,069	0,027	0,193	0,111	0,193	0,423	0,327	0,096	77,3
50-60	0,073	0,075	0,044	0,160	0,044	0,371	0,222	0,148	59,8
60-68	0,065	0,048	0,104	0,067	0,104	0,307	0,194	0,113	63,2
K.3-2023-2. Eskidan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi									
0-31	0,077	0,105	0,104	0,119	0,104	0,429	0,246	0,182	57,3
31-43	0,093	0,007	0,045	0,241	0,045	0,397	0,298	0,100	75,1
43-66	0,085	0,048	0,045	0,131	0,045	0,326	0,194	0,133	59,5
66-87	0,077	0,020	0,074	0,101	0,074	0,284	0,187	0,097	65,8
87-96	0,065	0,031	0,074	0,117	0,074	0,299	0,203	0,096	67,9
96-120	0,065	0,031	0,045	0,105	0,045	0,319	0,168	0,096	52,7
120-134	0,065	0,031	0,029	0,126	0,029	0,273	0,167	0,096	61,2
K.3-2023-3. Eskidan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi									
0-24	0,065	0,251	0,133	0,230	0,133	0,726	0,409	0,316	56,3
24-41	0,085	0,030	0,045	0,178	0,045	0,360	0,246	0,115	68,3
41-62	0,077	0,020	0,104	0,114	0,104	0,327	0,230	0,097	70,3
62-78	0,065	0,050	0,109	0,174	0,109	0,417	0,295	0,115	70,7
78-107	0,065	0,099	0,089	0,114	0,089	0,378	0,215	0,164	56,9
107-150	0,053	0,414	0,050	0,247	0,050	0,791	0,315	0,467	39,8
>150	0,065	0,065	0,178	0,327	0,178	0,652	0,522	0,130	80,1
K.4-2024-4. Yangidan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi									
0-30	0,081	0,118	0,015	0,053	0,044	0,328	0,126	0,199	38,4
30-51	0,085	0,030	0,080	0,118	0,104	0,361	0,245	0,115	67,9
K.5-2024-5. Yangidan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi									
0-29	0,073	0,007	0,044	0,129	0,178	0,398	0,318	0,080	79,9
29-49	0,061	0,051	0,104	0,028	0,059	0,217	0,105	0,112	48,4

O'rganilgan botqoq-o'tloqi tuproqlar ostki sizot suvlarida tuzlarning kamayib borish tartibi quyidagicha ko'rinishni oladi:

K3-2023-1-kesma. Sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar: CaSO₄ > MgSO₄ > Ca(HCO₃)₂ > NaCl > Na₂SO₄;

K3-2023-2-kesma. Eskidan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar: Ca(HCO₃)₂ > CaSO₄ > MgSO₄ > Na₂SO₄ > NaCl;

Sizot suvlarida gipotetik tuzlari miqdori, %

Sizot suvi chuqurligi, sm	Ca(HCO ₃) ₂	CaSO ₄	MgSO ₄	Na ₂ SO ₄	NaCl	Tuzlar yig'indisi
Kesma raqami: K3-2023-1						
68	0,44	0,61	0,45	0,15	0,09	1,74
Kesma raqami: K3-2023-2						
134	0,48	0,39	0,29	0,14	0,07	1,37
Kesma raqami: K5-2023-5						
50	0,65	0,52	0,53	0,31	0,11	2,12

K5-2023-5-kesma. Eskidan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar: Ca(HCO₃)₂ > MgSO₄ > CaSO₄ > Na₂SO₄ > NaCl.

Dissertatsiyaning «Botqoq-o'tloqi landshaft tuproqlari va o'simliklarning geokimyosi va biogeokimyosi» deb nomlangan to'rtinchi bobi to'rtta paragrafdan iborat bo'lib, botqoq-o'tloqi tuproqlarda kimyoviy elementlar geokimyosida elementlarni siklik (Fe, Ca, Na, K, Mo, Mn, Ba, Sr, Zn, Cr, Ni, Co, As, Hf, Sb), tarqoq (Rb, Sc, Cs, Ta, Br), kamyob (Ce, Nd, La, Sm, Tb, Eu, Lu, Yb), nodir metal (Au) va radioaktiv (Th, U) guruhlariga birlashtirgan holda o'rganildi.

Sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar tarkibida siklik elementlarning o'zgarish tendensiyasi – yuqoridan pastga qarab Fe, Mn, Ca, As, Sr elementlarining ortishi, K, Na, Zn, Cr, Ni elementlarining esa kamayishi bu tuproqlarda oksidlanish-qaytarilish va ion almashinish jarayonlarining chuqurlik bo'yicha keskin o'zgarishini ko'rsatdi. Sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlarning quyi qatlamlarida (100-150 sm dan pastda) lantanoidlar, Sc va Th elementlarining nisbatan ko'p to'planishi, yuqori qatlamlarda esa Rb, Cs va Br miqdorining ustunligi kuzatildi.

Sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlarda temir (Fe) miqdori 11500-41500 mg/kg oralig'ida o'zgargan bo'lib, tuproqlar uchun ishlangan o'rtacha qiymat (25000-38000 mg/kg) bilan taqqoslaganda yaqin diapazonda joylashgan. Eng yuqori Fe miqdori K.3-2023-2 kesmaning 43-66 sm qatlamida qayd etildi (41500 mg/kg). Kalsiy (Ca) miqdori yuqori (18600-24700 mg/kg), bu esa karbonatlarning ko'pligi va sug'oriladigan sharoitda yuvilish jarayonining sustligi bilan izohlanadi.

Natriy (Na) va kaliy (K) elementlari mos holda 2600-4300 va 3800-13200 mg/kg diapazonda o'zgarib, gidromorf sharoitda qayta taqsimlanishini bildiradi. Xususan, pastki qatlamlarda K ning ortishi sizot suvlari bilan kelib qo'shilishi va minerallarning parchalanishiga bog'liq.

Mikroelementlardan Mn, Zn, Ni, Co va Cr miqdorlari xalqaro me'yorlar doirasida, ba'zida esa ularning yuqori chegarasiga yaqin. Ayniqsa, Mn (600-9120 mg/kg) va Zn (34-90 mg/kg) ning nisbatan yuqori bo'lishi oksidlanish-qaytarilish sharoitlari o'zgaruvchanligini ko'rsatadi. As, Sb va Hf elementlari esa past miqdorlarda uchrab, bu tabiiy geokimyoviy fon darajasida ekanini bildiradi.

Kamyob Ce, Nd, La, Sm, Eu va Yb kabi lantanoidlar guruhi elementlarining nisbatan yuqori konsentratsiyasi (ayniqsa 80-150 sm chuqurliklarda) ularning kislorodsiz muhitda migratsiya jarayonining sustlashishi bilan bog'liqligini va geokimyoviy harakatchanligining pastligini ko'rsatadi. Tuproqlarda radioaktiv


